



FARG‘ONA VODIYSI TO‘QAYZORLARI

D.S.Toshpulatova

Qo‘qon DU, Biologiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: To‘qayzorlarda yem–hashak, dori–darmon, qurilish materiali, o‘tin va boshqa uy ro‘zg‘or buyumlari tayyorlash uchun xom ashyo sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan o‘simlik turlari ko‘p. Ulardan ayrimlari katta maydonlarda qalin bo‘lib o‘sadi va ko‘p miqdorda biomassa hosil qiladi. Shu jihatdan olganda to‘qayzorda o‘sadigan o‘simliklar orasida keraksiz yoki zararli turlari yo‘q deyish mumkin.

Kalit so‘zlar: to‘qayzor, liana, hayotiy shakl, turang‘il terak, qush jiyda, yulg‘un, o‘rmon fitotsenozi, namlik.

To‘qay va to‘qayzorlar deganda daryo bo‘ylariga yaqin bo‘lgan joylarni va u yerlarda o‘sovchi o‘simliklarni tushuniladi. To‘qayzorlar asosan ko‘p joylarda daraxt, buta, chala buta va o‘t o‘simliklarining birgalikda o‘shidan tashkil topadi. Shuningdek to‘qaylarda daraxtlarga chirmashib o‘sovchi o‘simliklar ham o‘sadi va daraxtlarning shox-shabbarining ustki qismiga chiqib, gullaganda va meva hosil qilganda kanallarga o‘xshash o‘ziga xos ko‘rinishlar hosil qiladi.

To‘qayzorlar odatda O‘rta Osiyoning shu jumladan Farg‘ona vodiysining cho‘l mintaqasidan tog‘ mintaqasiga qadar bo‘lgan daryo vodiylarida uchraydi. Ko‘proq ular tarqalgan maydonlar daryo va soylarning o‘rta va quyi qismiga to‘g‘ri keladi. Farg‘ona viloyatning Dang‘ara, Furqat, Beshariq tumanlaridagi Sirdaryo sohillarida to‘qaylar katta maydonlarni ishg‘ol qiladi. Isfayram, Shohimardonsoy shuningdek, O‘zbekiston tumanidagi suv havzalarida ham kichik to‘qaylar mavjud. Cho‘l mintaqasidagi daryo vodiylarida



joylashgan to'qay o'simliklari o'zlariga xos ekologik sharoitga ega bo'lish bilan harakaterlanadiyu ayniqsa yer osti suvining mo'lligi shu muhit sharoit uchun xosdir. To'qaylarda namni mo'l bo'lishi, haroratini o'simliklar me'yorida bo'lishi, tuproq tarkibida o'simliklar uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalarning yetarli darajada bo'lishi kabi omillar to'qaylarda har xil hayot shakliga ega bo'lgan xilma-xil o'simliklarni ko'plab o'sishiga imkon beradi.

To'qay o'simliklari bunday xilma-xil muhit sharoitda o'sib rivojlanishiga har tomonlama moslashgan bo'ladi. Shuning uchun ham qadimda Farg'ona vodiysining daryo sohillaridagi to'qayzorlarda daraxt, buta, chala buta va o't o'simliklar qalin bo'lib o'sgan yoppasiga ketgan katta maydonlarni ishg'ol qilgan. Lekin hozirgi kunda daryolar vodiysidagi to'qayzorlarni o'zlashtirishi, daraxt va butalarni tartibsiz o'zboshimchalik bilan kesib olinishi, o't o'simliklarni esa ostki qismi bilan ketmonda va boshqa qurollar yordamida yig'ib olinishi oqibatida odam yo'l topib yurishi o'ta qiyin bo'lgan qalin, katta maydonlardagi to'qaylarni nomigina saqlanib qoldi. Qisman o'rmon xo'jaligi qo'riqxonahududlaridagina tabiiy to'qaylarni ko'rish mumkin.

Daryo sohilidagi o'simliklar qoplamidoimiy bo'lmaydi, o'zgarib turadi. Buning asosiy sabablari suvning yo'nalish u yoki bu tomonga o'zgarishi, suv satxining (suv toshqinlari yoki keskin chuqur qatlamlarda joylashuvi, aholi tomonidan (sanoat korxonalari tomonidan ishlangan suvlarni)tashlandiq chiqindi suvlarni oqizilishi kabi omillar o'simliklar qoplamining shakllanishiga, rivojlanishiga va o'zgarishiga ta'sir qiladi. Natijada orolchalar, qairlar, terrasalar xududi kengayib yoki qisqarib turgan, yangillar hosil bo'lgan yoki eskilari suv ostida qolib ketgan. Lekin, eng asosiysi to'qaylar suv bilan doimo ta'minlanib turgan. Suv manbalari qatoriga daryo, kanal, soy suvlaridan tashqari yer osti suvlari va yog'in suvlarini ham kiritish mumkin.



Cho'l mintaqasidagi daryo vodiylarining sohillaridagi o'simliklar mahalliy aholi tomonidan to'qay deb yuritiladi. Lekin ayrim joylarda mahalliy aholi o'rmonlarni ham to'qay deb yuritishadi. Botanika adabiyotlarda esa daryo sohillarida ular yuritiladi. O'suvchi turli o'simliklar birganlikda to'qay nomi bilan yuritiladi. Umuman olganda to'qay-bu daraxt, buta va o't o'simliklarning birganlikda o'sishidan hosil bo'lgan o'rmondur, ya'ni o'rmon bilan to'qay bir ma'noni bildiradigan sinonim so'zlardir.

Shuning uchun ham, daryo vodiylardagi o'rmonlar botanik nuqtai-nazardan o'ziga hosiligi bilan ajralib turadi va adabiyotlarda mustahkam o'rni olgan mahalliy nom-to'qay deb yuritiladi.

Daryo vodiylaridagi to'qaylar hozirgi kunda ko'proq tor-tasmasimon, uzlik-uzlik holda saqlanib qolgan. Shuningdek, Farg'ona vodiysi hududidan oqib o'tayotgan Sirdaryo sohillarida ham to'qaylar ko'proq tasmasimon, kamdan kam hollarda katta maydonlarda uchraydi.

Sirdaryoda vaqti-vaqti bilan suvning toshib turishi, yer osti suvining yer yuzasiga yaqin joylashganligi tufayli to'qay o'simliklari tarqalgan yerlardagi tuproqlarda nam yetarli darajada bo'ladi. Shuning uchun ham to'qay o'simliklari vegetatsiya davrida namga muxtoj bo'lmaydi. Shu sababli to'qaylar to'kech kuzga qadar yam – yashil bo'ladi.

Keyingi yillar davomida yerlarni keng ko'lamda o'zlashtirilishi, sug'oriladigan maydonlarni ortishi, suv omborlarini barpo qilinishi natijasida Sirdaryoning suvi keskin kamaydi. Suv toshqinlari bo'lmay qoldi, oqibatda daryo sohillarida joylashgan to'qayzorlardagi tuproqlarda namlik kamayib, yerni yuza qismida joylashgan suvlar asta-sekin yerning ostki qatlamiga tushib bormoqda. Bu holat so'zsiz tuproqda namni yetarli bo'lishini talab qiluvchi daraxt va butalarga, baland bo'yli o'suvchi o't o'simliklarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Hozirgi suv tanqisligi davrida to'qaylarni ham sug'orish zaruriyati paydo bo'lmoqda.



Yaxshi shakllangan to‘qay o‘rmon fitotsenozida daraxtlar qalin bo‘lib, shox–shabbalar bir–biriga kirishib ketgan bo‘ladi. Bundan tashqari ayrim to‘qaylarda chirmashib o‘sovchi o‘simliklar tomonidan daraxtlarning shox – shabbalari ustini o‘rab kapalar ko‘rinishini hosil qilishi natijasida daraxtlarni ostki qismiga tangadek ham yorug‘lik tushmaydi. Shu sababli o‘rmonlarda havo harorati kuchsizlanadi, daraxtlar hosil qilgan yuqori yarus ostki qismidagi buta va o‘t o‘simliklarning rivojlanishiga kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Farg‘ona viloyatidagi to‘qaylarda asosan turang‘il terak, qush jiyda, yulg‘un, qora jingil kabi daraxt va butalardan hamda qamish, shirinmiya, yantoq, qalam, qalamibarg, ruvako‘t, ajriq, ravin savog‘ichi, tuyatavon kabi o‘t va sharq iloncho‘pi, Sibir sutpechagi singari liana shaklidagi o‘simliklardan tarkib topgan.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, to‘qay o‘simliklari tarkibi o‘ziga xosligi, ko‘proq bir xildagi ko‘rinishga ega bo‘lishi, hamma xildagi hayot shakliga ega bo‘lgan o‘simliklarni o‘sishi bilan harakterlanadi.

Bu yerda tarqalgan o‘simliklarning hamma hayot shakllari namli sharoitda o‘sib rivojlanishiga moslashgan. Shuning uchun ham to‘qaydan qumli cho‘l, sho‘rxokli, gipsli cho‘lga chiqishi bilan tuproq tarkibi, tuproq va havo namligi shular qatori o‘simliklar tarkibi ham o‘zgaradi. To‘qaydan uzoqlashish bilan har bir cho‘lning muhit sharoitiga muvofiq ravishda o‘simliklari shakllana boradi.

Sirdaryo sohillaridagi to‘qaylarni shakllanishida daryo suvi va shamolning ahamiyati katta bo‘lgan. Suv oqimi orqali olib kelib tashlangan qumlar qurishi bilan shamol ularni uchirib qum uyumlari, barxanlarni hosil qilgan. Dastlab nam joylarga qamish, ruvako‘t, qo‘g‘a va boshqa o‘simliklar tarqalgan. Shular bilan bir vaqtda daraxt va buta o‘simliklardan turang‘il terak, qora terak, suvtol, qum jiyda, yulg‘un kabi o‘simliklar ham tarqala boshlagan. Bu yerlarda namni ortib borishi munosabati bilan to‘rang‘il terak, tol,



jiyda kabi daraxtlardan iborat aralash to‘qaylar hosil bo‘lgan bo‘lsa, boshqa joylarda deyarli sof turang‘illar, jiydazorlar, tolzorlar, yulg‘unzorlar mustaqil holda shakllangan. Bular dastlabki davrlarda tasmasimon ko‘rinishda shakllangan va keyinchalik ular egallagan maydonlar kengayib borgan.

Nam ortib, yer yuzasida botqoqlashgan joylarda esa sof qamishzorlar rivojlanib, bu yerlarda daraxt va butalar asta – sekin yo‘qola borgan.

To‘qay o‘simliklari orasidan yulg‘un turlarining joy olishi tufayli tuproqda tuz ko‘payadi. Chunki, yerga to‘kilgan yulg‘un shoxchalaridagi tuzlar yog‘ingarchilik natijasida erib yerni sho‘ralnishga sabab bo‘ladi va asta–sekin sho‘rxok tuproqlar shakllanadi. Bu yerlarga birinchi bo‘lib, sho‘radoshlar oilasidan qorabargo‘t, qorabarak va shu oilaga mansub o‘simliklar tarqaladi. Ular asta–sekin rivojlanib, o‘ziga xos ko‘rinishdagi manzarlarni hosil qiladi.

Yerda sho‘rlanishning ortib borishi va sho‘rxok yerlarni kengayishi natijasida bu yerdagi to‘qay o‘simliklaridan daraxt shakllari o‘z o‘rnini o‘t o‘simliklarga bo‘shatib beradi. O‘t o‘simliklar orasida sho‘rga chidamli bo‘lgan oqbosh, sho‘rajriq, kermak, sho‘ri kamroq bo‘lgan joylarda esa shirinmiya, yantoq kabi o‘simliklar tarqala boshlaydi.

Shunday qilib, tashqi kompleks omillarning u yoki bu tomonga o‘zgarishi bilan u yerda tarqalgan o‘simliklar qoplami ham shunga muvofiq ravishda o‘zgarib boradi. Shunday qilib, yangi o‘zgargan muhit sharoitga moslasha olmagan o‘simliklar o‘z o‘rinlarini boshqa guruh o‘simliklarga bo‘shatib beradi. Haqiqatdan ham tashqi o‘zgargan muhit sharoitida o‘simliklar jamoasi shu yangi muhit sharoitga moslasha olmasdan, ular o‘rnini boshqa o‘simliklar guruhi egallaganligini keyingi 50 – 60 yil davomida mahalliy aholi kuzatgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арифхонова М.М. Тугай Ферганской долины, тр. ТашГУ вып. 187. 1961 г
2. Арифхонова М.М. Растительность Ферганской долины. Изд.во. «Фан» УзССР. 1967
3. Афанасьев К.С. Растительность Туркестанского хребта М-П Изд.во АНССР. 1956.
4. Гранитов И., Пятаева А., Александрова Е. Растительность Ферганская област. 1958. -С. 35-43.
5. Закиров П. Классификация растительности Средней Азии. Ўзбекистон биология журнали, 1989. -С. 32-39.
6. Haydarov K., Xojimatov K. O'zbekiston o'simliklari. - Toshkent, O'qituvchi, 1992. - B. 25-31
7. Pratorov.O.P., Nabiev.M.M., O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
8. Xamidov G`.X O'zbekiston foydali o'simliklarini muhofaza etish Toshkent. "Fan" 1990.